

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

*№ 3 (3) - 2023*

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 3 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

**Юлдашев Анвар Эргашевич** – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Мавланов Уктам Махмасабирович** – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Хазраткулов Аброр** – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

**Ҳакимов Назар Ҳакимович** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодийёт университети;

**Яхшиликков Жўрабой** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

**Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

**Ҳошимхонов Мўмин** – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

**Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна** – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Ахмедов Ойбек Сапорбаевич** – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

**Кўчимов Шухрат Норқизилович** – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

**Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна** – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

**Кучкаров Раҳман Урманович** – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

**Юнусов Мансур Абдуллаевич** – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Саидов Улугбек Арипович** – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **ЮРИДИК ФАНЛАР:**

**Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Эсанова Замира Нормуратовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

**Зулфиқоров Шерзод Хуррамович** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

**Хайитов Хушвақт Сапарбаевич** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Асадов Шавкат Ғайбуллаевич** – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдуллаев Шахзод Алиханович** – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

### **ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

**Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Ибрагимова Гулнора Хавазматовна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодийёт университети;

**Закирова Феруза Махмудовна** – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

**Тайланова Шоҳида Зайниевна** – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Каримова Васида Маманосировна** – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Ҳайитов Ойбек Эшбоевич** – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

**Умарова Навбахор Шокировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

**Атабаева Наргис Батировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Қодиров Обид Сафарович** – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Латипова Нодири Мухтаржановна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

**Сеитов Азамат Пўлатович** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

**Содиқова Шоҳида Мархабоевна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **СИЁСИЙ ФАНЛАР**

**Назаров Насриддин Атақулович** – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

**Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич** – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

#### **Электрон манзил:**

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod*

QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI ..... 9-14

*Шухрат Эргашев*

ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ

ТЎНТАРИШИ ..... 15-23

*Касимова Шахноза Алишеровна*

ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ ..... 24-29

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Файзиева Ширин Шодмоновна*

АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ  
ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ ..... 30-35

*Мусагалиев Ажунияз Жумагулович, Дустова Мухайё Худайбердиевна*

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ БОРАСИДАГИ АЙРИМ  
МАСАЛАЛАР ..... 36-41

*Murodova Nargiza Utkirovna*

TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI ..... 42-47

*Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Haydarovich*

КОМПАНИЯЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ТО'ЛОВГА ЛАЙОҚАТСИЗЛИГИ ХАВФИНИ АНИҚЛАШ ..... 48-55

*Temirova Feruza Sagdullayevna*

MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI -  
BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ..... 56-62

*Sobirova Marhabo Haitovna*

МЕВА-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
YO'LLARI ..... 63-67

*Mamajonova Gulasal Oribjon qizi*

KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI ..... 68-77

*Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich*

О'ЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЙОТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ИНВЕСТИЦИЯ РИСКЛАРИНИ  
БОШҚАРИШ SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... 78-87

*Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович*  
КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ  
МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ ..... 88-101

*Каржавова Хуршида Абдумаликовна*  
МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИНГ  
АСОСИЙ ЙўНАЛИШЛАРИ ..... 102-110

*Soliyev Dilmurod Jamolovich*  
AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING  
ASOSIDIR ..... 111-119

*Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna*  
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH  
MASALALARI ..... 120-130

#### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Тўраев Шавкат Нишонович*  
ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ ..... 131-137

*Qodirov Davronbek Hoshimovich*  
TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY ..... 138-143

*Sharipov Dilshod Baxshilloevich*  
TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI ..... 144-148

#### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Гаппаров Алибек Қаршибоевич*  
ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ ..... 149-155

*Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqut Quدراتillayevna*  
APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND  
AND VISUALLY IMPAIRED ..... 156-161

*Ахмедшина Лилия Рафаэлевна*  
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ « И «ЖЕНА»  
В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ ..... 162-166

*Kholmuminova Makhliyo*  
DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES ..... 167-171

*Shirinova Yekaterina*  
NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI ..... 172-178

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Қутлымуратов Фархад Қалбаевич*

ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР  
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ ..... 179-185

*Kasimov Nodirjon Sodikjonovich*

QASDDAN O'DIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY  
XUSUSIYATLARI ..... 186-196

*Урманбаева Ферузахон Саттаровна*

ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ ..... 197-203

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich*

“HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ  
KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR  
TAHLILI) ..... 204-210

*Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich*

BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA  
TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI ..... 211-217

*Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich*

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA  
TARBIYALASH ..... 218-223

*Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна*

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ  
ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ..... 224-229

*Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich*

HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI  
RIVOJLANTIRISH ..... 230-236

*Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi*

ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE  
EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES ..... 237-244

*Yusupov Dilmurod Abdurashidovich*

YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER  
TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH ..... 245-254

*Ergashev Omonboy Turgunbayevich*

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI VA  
PEDAGOGIK ASOSLARI ..... 255-260

<i>Ruzmetova Novval Vahabjanovna</i> THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW SCHOOLS .....	261-269
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI .....	270-274
<i>Makhmudov Furqat Djumaboyevich</i> YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI O'QITISH USULLARI .....	275-281
<i>Бабахова Гулзиба Зиятбаевна</i> К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА .....	282-289
<i>Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich</i> KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA .....	290-296
<i>Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна</i> КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ .....	297-301





Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари. -2023. -№ 3 (3).  
ISSN: 2181-1342 (Online)  
<https://scienceproblems.uz>

13.00.00 – Педагогика фанлари

**Rahmatov Otabek Urinbosarovich**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Navoiy davlat pedagogika instituti

e-mail: [rahmatov.otabek@inbox.ru](mailto:rahmatov.otabek@inbox.ru)

tel: [+99897 776-08-82](tel:+998977760882)

### **BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

**Аннотация.** Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy sport turlari asosida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari yechimiga oid maqsad va vazifalar, ilmiy g'oyalar, tavsiyalar haqida so'z yuritiladi.

**Калит so'zlar:** milliy sport, kompetentlik, didaktogen, refleksiv, kooperativ, kollaborativ, kompetensiya, individual, texnologiya.

**Рахматов Отабек Уринбосарович**

доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Навоийский государственный педагогический институт

### **АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ВИДОВ СПОРТА**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются цели и задачи, научные идеи и рекомендации, связанные с решением актуальных вопросов формирования практической компетентности будущих учителей физической культуры на основе национальных видов спорта.

**Ключевые слова:** национальный спорт, компетентность, дидактогенный, рефлексивный, кооперативный, совместный, компетентностный, индивидуальный, технология.

**Rakhmatov Otabek Urinbosarovich**

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Navoi State Pedagogical Institute.

### **CURRENT ISSUES OF FORMING PRACTICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF PHYSICAL EDUCATION ON THE BASIS OF NATIONAL SPORTS**

**Abstract.** This article discusses the goals and objectives, scientific ideas and recommendations related to the solution of topical issues of the formation of practical competence of future physical education teachers on the basis of national sports.

**Keywords:** national sport, competence, didactogenic, reflective, cooperative, joint, competence-based, individual, technology.



<https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N36>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 20 sentyabrda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda: „Biz xalqaro sport maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro' - e'tiborini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerak“ – deb ta'kidlab, sohaga oid yechimtalab bir necha vazifalarni belgilab berganligi bizga ma'lum.

Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat siyosatini yuritish pedagog-kadrlar salohiyatini yanada yuksaltirish, pedagogik jarayonni texnologik tashkil etish orqali bolalar va o'smirlar salomatligi haqida qayg'urish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Ta'kidlab o'tish joizki, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mamlakatimizda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi O'RQ-394-son „Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida“ Qonuni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 oktyabrdagi PQ-3306-son „„Kurash» milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“[2], 2020 yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son „Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida“[3] qarorlari, 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son „Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“[4], 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son „O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“[5], 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son „Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“[6] farmonlari va mazkur faoliyatga muvofiq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy sport turlari asosida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari yechimini topishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahonda har bir mamlakatning umumbashariy, badiiy salohiyat darajasini belgilaydigan, ma'lum xalq, jamiyat, tarixiy davrga xos jismoniy kamolot ko'rsatkichini ifoda etadigan, shaxslararo munosabatlar madaniyatini tarkib toptirishga xizmat qiladigan milliy sport turlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, milliy sport turlari va o'yinlariga ommaviy qiziqishni oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, sport-sog'lomlashtirishga doir pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish asosida o'quvchilarda jismoniy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sport o'yinlari orqali talabalarda jamoaviylik, raqobatlashuv, daxldorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish kabi xususiyatlarni tarkib toptirish, nizoli vaziyatlarda natijaga erishish bo'yicha jamoaviy harakatlar samaradorligini ta'minlaydigan texnik-taktik strategiyalarni ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Dunyoda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish, ular pedagogik faoiyatida o'quvchilarni milliy sport o'yinlari bo'yicha musobaqalashuv foaliyatining integral tuzilmasini aniqlashtirish, ta'lim oluvchilarning jismoniy barkamolligiga ta'sir ko'rsatuvchi majmuaviy omillarni milliy sport turlari va sport o'yinlari bilan bog'liqlikda empirik baholashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, Oliy ta'lim muassasalarida „Jismoniy madaniyat“, „Sport faoliyati: Milliy kurash“ ta'lim yo'nalishlari talabalarida milliy sport turlari asosida amaliy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish,

istiqbolda pedagogik faoliyatni mazmunan tashkil etishda milliy sport turlari g'oyalari asosida tashkil etishga qiziqishni uyg'otish, sport o'yinlari bo'yicha strategiyani belgilashga doir texnik-taktik harakatlarni maqbullashtirish, milliy sport o'yinlari vositasida ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik sifatlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari va o'yinlariga qiziqishini oshirishning psixologik-pedagogik omillarini aniqlashtirish, ta'lim oluvchilarda milliy o'zlikni anglash, identiklikni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining amaliy kompetentligini rivojlantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslari, mashg'ulotlari, sport maktablari va to'garaklari faoliyatini tubdan yangilash, o'quv jarayoniga samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagogik faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati mazmuni va diapozonini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, ijtimoiy sohaning barcha bo'g'inlarida milliy sport turlariga bo'lgan talabning ortib borishini inobatga olib, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy sport turlari va o'yinlariga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish yo'llari, shakl, metod va vositalari mazmuni va o'qitish tuzilmasi takomillashtirilmoqda.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish bevosita umumiy o'rta ta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablarida jismoniy tarbiya va sport faoliyatini tubdan takomillashtirish bilan bog'liq holda, bolalar salomatligini ta'minlashning o'rni kattadir. Jismoniy tarbiya va sport ta'limi mazmunini boyitish shakl va metodlariga bag'ishlab respublikamiz olimlari F.A.Kerimov, R.S.Salomov, T.S.Usmonxo'jaev, F.Xo'jaev, H.T.Yusupovlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. [7; 7- b.]

Respublikamiz olimlari: X.K.Komilov, A.R.Taymuratov, K.D.Yarashevlarning tadqiqotlari umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining sport texnikasi va mahoratlarini shakllantirish muammolari yechimlarini topishga qaratilgan. [7; 7- b.]

Bundan tashqari milliy sport turlarining umumiy va maxsus sifatlarini o'ziga xos ravishda farqlanuvchi xususiyatlari, ularni texnik-taktik tayyorgarlik komponentlariga bog'liq holda rivojlantirishning ilmiy-nazariy uslubiy asoslari R.Abdumalikov, A.Q.Atoev, F.Q.Axmedov, H.A.Meliyev, F.N.Nasriddinov, A.Nosirov, T.Odilov, A.Ro'ziev, B.X.Saidov, N.A.Tastanov, J.T.Toshpo'latov, T.S.Usmonxo'jaev, U.Qoraboyev, A.Q.Hamroqulov kabi yetakchi mutaxassis-olimlarning fundamental tadqiqotlariga muvofiq ochib berilgan. [7; 7- b.]

O'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlilidan aniqlanishicha, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirishda jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarida o'quvchilardagi zerikish hissini yo'qotish, dars jarayonida o'quvchilarning emotsional holatini yaxshilash (vaziyat va o'quvchi yosh xususiyati) charchash hissini kechiktirish, sport turiga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirish asosida o'quvchini jismoniy yetuk qilib tarbiyalashda milliy sport turlari samarali vosita vazifasini o'tashi sohaning yetuk mutaxassislari tomonidan e'tirof etiladi.

Biroq o'tkazilgan tadqiqotlarda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan maxsus tadqiqotlar o'tkazilmaganligi aniqlandi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirishga oid quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish jarayonining tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirishni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishdagi didaktik imkoniyatlarini yoritib berish;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

- kompleks yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirishga oid quyidagi ilmiy g'oyalarni ilgari surishni maqsad qilib oldik:

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish jarayonining tuzilmasi milliy sport turlari va o'yinlari haqidagi bilimlar shaxsiy ahamiyatlilik kasb etuvchi motivatsion, faoliyatni tashkil etishdagi hissiy barqarorlikni ta'minlaydigan emotsional, irodaviylik, chidamlilik kabi sifatlarda namoyon bo'ladigan komponentning jismoniy tayyorgarlik bilan internallashtirish darajasini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirish;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirishning didaktogen omillari ta'lim oluvchilarning gender xususiyatlarini hisobga olish asosida sport turlariga maqsadli yo'naltirish, taktik va strategik texnikani bosqichma-bosqich maqbullashtirib borish, reflektiv pozitsiyani egallash uslubini faollashtirish jarayonlarining individual-tipologik jihatdan namoyon bo'lishini qat'iy belgilash orqali aniqlashtirish;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga milliy sport turlari mashg'ulotlarida „bellashuv sharoitida usullarning qo'llanishini o'rgatish“, „o'rgatish metodlarining rang-barangligi“, „erkin bellashuvlar“ va „o'rgatish va amaliyotga tadbqiq etish usullarini o'zlashtirish“, talabalarining milliy sport turlari mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishlarini, musoboqalashish, yetakchilikka intilishi, natijalarga erishish, o'zini o'zi namoyon qilish va rag'batlantirish motivlarini shakllantiruvchi omillar ekanligi dalillash;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish modelining tashkiliy komponenti jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kouch-trenerlik faoliyatini kooperativ va kollaborativ funksiyalarini jadallashtirish, fasilitativ muhitni yaratish orqali ta'lim oluvchilarda komandada ishlash kompetensiyani rivojlantirish jarayonini ishlab chiqish orqali takomillashtirish.

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining amaliy bosqichi kooperativ (hamkor), individual (mustaqil tayyorgarlik, maslahat, yakka tartibdagi trening) ish shakllarini qat'iy tartibga solingan jismoniy mashq, raqobat usullari bilan qayta aloqasi intensivligini ta'minlash orqali takomillashtirish.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga asoslangan holda tavsiya sifatida:

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining amaliy bosqichi ommaviy (musobaqa, tanlov,

tadbirlar), jamoaviy (nafas olishni sog'lomlashtirish, kollaboratsiya, kooperatsiya), individual (mustaqil tayyorgarlik, maslahat, yakka tartibdagi trening) ish shakllarini qat'iy tartibga solingan jismoniy mashq, o'yin, raqobat usullari bilan qayta aloqasi intensivligini ta'minlash;

- dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning milliy sport turlariga qiziqishini rivojlantirishning didaktogen omillari ta'lim oluvchilarning gender xususiyatlarini hisobga olish asosida sport o'yinlariga maqsadli yo'naltirish;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish modelining tashkiliy komponenti jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kouch-trenerlik faoliyatini kooperativ va kollaborativ funktsiyalarini jadallashtirish;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining milliy sport turlari asosida amaliy kompetentligini rivojlantirish asosida sog'liqni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan kompleks dastur ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi vazifalarni bajarish o'ziga xos yechimga olib keladi.

Demak, xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, „bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy sport turlari asosida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari“ga oid ushbu maqolamizda keltirilgan maqsad va vazifalar, ilmiy g'oyalar, tavsiyalar asosida joriy etmoqchi bo'lgan ta'lim texnologiyalarimiz amaliyotga yangi atmosfera diapozonini vujudga keltiradi. Va o'z-o'zidan ayon bo'ladiki, jismoniy tarbiya va sport amaliyoti ta'lim-tarbiya jarayonida bugungi davr talabi darajasida soha vakillari va mutaxassislarining namoyon bo'lishini taqazo etadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi O'RQ-394-son „Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida“ Qonuni. „Xalq so'zi“ gazetasi 2015 yil 5 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 36-son, 473-modda
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 oktyabrdagi PQ-3306-son „„Kurash“ milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“ Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.10.2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrdagi PQ-4881-son „Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida“ Qarori. QHMMB: 07/20/4881/1468 04.11.2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son „Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ Farmoni. QHMMB: 06/18/5368/0851-son 06.03.2018 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son „O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2020-y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son „Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“ Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son.
7. Raxmatov O.U. O'quvchilarning milliy sport turlariga qiziqishini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. 2022 y.



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 3 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).